

“MATILDA “ ASARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI TAHLILI

Ro'ziqulova Zebo Shuhrat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur ingliz yozuvchisi Roald Dalning “Matilda” romani va uning o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilinadi. Maqolada asrning tarjimasi va kuchli yumor, kinoya orqali haqiqatni ochib berilganligi haqida gap boradi. Maqolada tarjima jarayonida uchraydigan leksik, stilistik va madaniy muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, asliyat va tarjima matni o‘rtasidagi madaniy farqlar muallif uslubining o‘zbek tilida qay darajada saqlangani tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bolalar adabiyotini tarjima qilishda tarjimon mahorati muhim ekanligi va bolalar adabiyotida ham madaniy moslashtirish muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi va tarjimada uchragan madaniy muammolarni aniqlash va muallif uslubining saqlanish darajasini baholashdan iborat.

Kalit so'zlar: Roald Dahl, Matilda, tarjima tahlili, bolalar adabiyoti, o‘zbekcha tarjima, stilistika.

Badiiy adabiyotlar orasida bolalar adabiyotiga ham bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda, jahon adabiyotlari tarjimasiga bo‘lgan e‘tibor ham bunga yorqin misol bo‘ladi. Hozirgi jadal suratda rivojlanayotgan zamonda kitob o‘qishga bo‘lgan talab va ehtiyoj o‘zbek tiliga tarjima qilinyotgan asarlarda ham ko‘rinadi. Bunga yorqin misol sifatida Roald Dalning “Matilda” asarni olsak bo‘ladi. Bu asar ilk bor o‘qilgandayoq insonda hayrat va qiziqish o‘yg‘atagi, asar “Ba’zi ota-onalar juda g‘alati” jumlasini bilan boshlangan shuning o‘zi ham asardagi ota-onaning holati haqida ilk ma’lumotni beryabdi. Bolalar uchun tushunarli bo‘lgan qisqa gaplar, jonli dialoglar va kulguli voqialar yordamida asar boyitib borilgan. Komila Nosirovaning tarjimasi to‘liq o‘zbek madaniyatiga moslangan va sodda bolalarga to‘shinarli qisqa jumlar bilan boyitib borilgan. Asliyat: “Mr and Mrs Wormwood looked upon reading as a waste of time.” Tarjima: “Janob va xonim Vormvud kitob o‘qishni foydasiz mashg‘ulot deb bilishardi.” Tarjima mazmunan juda yaqin. “Waste of time” iborasi “foydasiz mashg‘ulot” deb to‘g‘ri va tushunarli tarjima qilingan. O‘zbek o‘quvchisi uchun tabiiy eshitiladi. Asliyat: “She was so fast and brilliant her parents thought she was abnormal.” Tarjima: “U shu qadar tez fahmlaydigan va aqlli ediki, ota-onasi buni g‘alati hol deb o‘ylashdi.” Chuni uning otasi juda fahimsiz pul uchun har narsaga tayyor inson bo‘ladi. Asarning badiiy va lingvistik

xususiyatlari “Matilda” romanining sodda, lekin mazmunan boy til bilan yozilgan va aynan bolalar obrizi tanlangani ham asrani ta'sirli va chuqur ma'noli qilib berganligi bilan muhimdir. Asarda kinoya, mubolag'a va hazil ko'p uchraydi. Bu esa tarjimon oldiga murakkab vazifani qo'yadi. O'zbekcha tarjimada ushbu lingvistik xususiyatlarni saqlab qolish muhim hisoblanadi va asliyat tilini yuqotmagan holda uzbek tiliga moslashtirish ham asosiy masaladir. Ayrim hollarda ingliz tilidagi so'z o'yinlari va kinoyalar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki o'zbek tiliga mos shaklda beriladi. Bu usul tarjimaning tabiiy chiqishiga yordam beradi. Masalan: “Mr Wormwood was a small ratty-looking man whose front teeth stuck out underneath a thin ratty moustache.” O'zbekcha tarjima: “Janob Vormvud past bo'yli, yoqimsiz ko'rinishdagi, old tishlari oldinga chiqib turgan odam edi.” Tahlil: Asliyatda muallif kinoya va mubolag'adan kuchli foydalangan (“ratty-looking”), o'zbekcha tarjimada bu so'z to'liq tarjima qilinmagan, balki umumiy ma'noda “yoqimsiz ko'rinishdagi” deb berilgan. Natijada mazmun saqlangan, lekin yumor darajasi biroz pasaygan. Bu holat stilistik yo'qotish sifatida baholanadi.

Madaniy moslashtirish masalalari “Matilda” romanida ingliz madaniyatiga xos bo'lgan maktab tizimi, oila munosabatlari va kundalik hayot tasvirlari mavjud. Kitobdagi dunyo shu bilan birga xayolot olami haqiqiy olamdan ko'ra go'zalroq va u yerda yashash qiziqroq ekanligi ko'p kitob o'qigan Matilda obrizi orqali ochib beriladi. Moddiy hayotda qiynalgan va yaxshi yashash uchun har ishga tayyor ongsiz va farzand tarbiyasiga befarq hattoki uning o'zlaridan aqilli ekanligini tan olishni istamagan insonlar sifatida tasvirlangan. Asliyat: “Parents are often a little bit proud when their children show signs of brilliance.” O'zbekcha tarjima: “Ota-onalar farzandlarida aql-zakovat belgilarini ko'rsa, odatda bundan mamnun bo'lishadi.” Tahlil: Bu jumlada muallifning yengil kinoyaviy ohangi mavjud. O'zbekcha tarjimada jumla neytral ohangda berilgan. Bu bolalar adabiyotida tez-tez uchraydigan holat bo'lib, tarjimon murakkab kinoyani soddalashtirgan. Tarjimada bunday elementlar to'liq o'zgartirilmaydi, balki o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun moslashtiriladi. Madaniy moslashtirish bolalar adabiyotida ayniqsa muhimdir, chunki bolalar begona madaniyatni qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Asliyat: “Miss Trunchbull was a terrifying headmistress.” O'zbekcha tarjima: “Miss Tranchbull qo'rqinchli maktab direktori.” Tahlil: “headmistress” tushunchasi o'zbek tilida “maktab direktori” deb berilgan. Bu — madaniy moslashtirishning aniq namunasi, chunki o'zbek o'quvchisi uchun “headmistress” so'zi tushunarsiz bo'lishi mumkin. Tarjimon mazmunni

saqlagan holda tushunarli ekvivalentni tanlagan. O'zbekcha tarjimada bu masalaga e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Roald Dalning "Matilda" romanining o'zbekcha tarjimasi umumiy jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Tarjimada asarning asosiy mazmuni, g'oyasi va badiiy ruhi saqlangan. Shunga qaramay, ayrim stilistik va leksik yo'qotishlar mavjud. Ushbu tahlil bolalar adabiyotini tarjima qilishda nafaqat tilni, balki madaniyat va uslubni ham chuqur bilish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dahl, R. Matilda. London: Puffin Books, 1988.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
3. Nida, E. Principles of Correspondence. Leiden: Brill, 1964.
4. O'zbek tarjimashunosligi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Roald Dal, "Matilda". "Yangi asr avlodi" 2021-yil

ⁱ „Hozirgi o'zbek tili“ R. Sayfullayeva

ⁱⁱ „O'zbek tilining izohli lug'ati“